

**DARSLIK VA O'QUV TOPSHIRIQLARI MUAMMOLI TA'LIMNING ETAKCHI
VOSITASI SIFATIDA**

Usmonova Yulduzxon Komiljon qizi

NamDU magistranti

Annotatsiya: *maqolada darslik asosida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish orqali muammoli ta'lidan foydalanish shartlari va bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *fikrlash; mummoli ta'lim vositalari; darslik; o'quv topshiriqlari; kitob bilan ishlash usullari; kitob bilan ishlash darajasi.*

Аннотация: в статье представлена информация об условиях и этапах использования проблемного обучения путем разработки учебных заданий на основе учебника.

Ключевые слова: мышление; качественные образовательные инструменты; учебник; учебные задания; способы работы с книгами; уровень обращения с книгой.

Abstract: the article provides information on the conditions and stages of using problem-based education by developing educational tasks based on the textbook.

Key words: thinking; quality educational tools; textbook; educational assignments; ways of working with books; book handling level.

Insonga xos bo'lgan fikrlash murakkab jarayon bo'lib, uning murakkabligi, oddiy kitob o'qish yoki o'qituvchining tushuntirib bergan ma'dumotlarini tinglash bilan bilimlar ko'payib qolmaydi. Fikrlash shunday faol jarayonki, bunda inson o'qigan, mushohada qilayotgan manbasiga o'z munosabatini bildira olishi kerak.

Mustaqil, erkin, ijodiy fikr yuritish uchun muhim sharoitlardan biri – agar o'zaro muloqot ko'pchilik orasida ro'y berayotgan bo'lsa, suhbatdaoshlar, tengdoshlar o'rtasida normal, teng huquqli o'zaro fikrlarni hurmat qilish sharoiti bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish istagi orqali o'quvchida mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirish o'qituvchidan katta kuch va o'ziga xos mahoratni talab etadi. Fikrlash ko'nikmasi o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar mohiyatini to'g'ri anglashga, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu hol esa, insonda faqat shaxsiy manfaatlar doirasida faoliyat yuritish bilan cheklanish, ijtimoiy muammolarni tushunmaslik va ularni hal qilishga layoqatsizlik kabi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga va oqibatda fikriy qaramlikka olib keladi. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq o'quvchilarning o'zlarida o'qish istagini paylo qilish orqali mustaqil o'ylashga da'vat etish anchagina samarali usuldir.

Mustaqil fikrlaydigan yoshlар madaniylashgan ongi va aqli orqali komillikka intiladi, hayotining mazmunini boyitadi, shu asosida jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi. Mustaqil fikrlash va faol izlanish, hurfikrlilik va tafakkurning




dunyoviy lashuviga keng yo'l ochadi va uning erkinligini ta'minlaydi hamda yangicha dunyoqarash va fikrlash tarzini namoyon etadi.

Dunyoviylik tafakkurning ilmiylikka tayanishi orqali ta'minlanadi. Mas'uliyat, ijodkorlik etishmagan joyda tafakkur hech qachon faol va mustaqil bo'lmaydi. Mustaqil fikrlash aqliy faoliyatning yuksak shakli bo'lib, inson tushunchasining oliy maqomidir hamda atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli bo'lib, shaxs faoliyatini amalga oshiradi [4].

Ma'lumki, 1-4- sinflarda o'qish darslarida o'quvchilarga o'qish istagini shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish asosiy ish turi sifatida matn ustida ishlash muhim faoliyat turi sanaladi. Boshlang'ich sinfda darslarda mustaqil fikrlash - bu har bir matn mazmunini tahlil qila olish, unda tasvirlangan voqeа - xodisalar va qahramonlarga o'z munosabatini bildirish, matn mazmuniga oid yangi vaziyatlar yaratish, mushkul vaziyatda o'ziga yo'l topa olish faoliyatidir.

Mustaqil fikrlash qobiliyati esa nutqning qay darajada rivojlanganligiga ham bog'liq. Bolalarni boshlang'ich sinflardanoq mustaqil fikrlashga o'rgatish qo'yilgan har bir muammoni o'zgalar yordamisiz hal eta olish qobiliyatini rivojlanadiradi [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustvqil fikrlashga o'rgatishda muammoli ta'lim va uni amalga oshirish vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida muammoli ta'limning quyidagi vositalaridan samarali foydalanish zarur:



Darslik - muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o'zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga moslashtirilgan, o'quvchilarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o'quv nashridir.

Xo'sh, muammoli ta'limda darslik (kitob) bilan ishlashning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat? Bunda birinchi navbatda o'quvchining aqliy faoliyatini faollashtirish uchun didaktika tavsija etgan barcha usullar xarakterli bo'lib, eng asosiysi o'quvchini o'qishga o'rgata bilishdir.



Muammoli ta'lism uchun o'quvchini kitob bilan mustaqil ishlash, tushunib o'qish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishga o'rgatish zarur.

Amaliyotdagi holatni kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilarining ko'pchiligi o'quvchilarga darslik va qo'llanmalar bilan ishlash usullarini o'rgatishga kam e'tibor berishmoqda. Tadqiqotchi L.A.Konsevaya olimlarning ishlarini tahlil qilib, ularning kitob bilan ishlash usullari to'g'risida quyidagilarni aniqladi:

- o'qish – izlash, muhimini ajratish;
- mazmuniga ko'ra guruhash, o'qish-saralash;
- reja, konspekt, tezislар tuzish;
- sxema, jadval, diagrammalar tuzish;
- o'qiganiga tanqidiy baho berish;
- materialni qaytadan tuzi shva shaxsiy farazlarni bayon qilish.

Shuningdek, L.A.Konsevaya kitob bilan ishlash darajasini shartli ravishda uchga ajratib ko'rsatdi.

Birinchi daraja – bilishga oid; o'quvchi matnda nimaiki mayjud bo'lsa, uni tushunadi va undan foydalanadi, ya'ni ma'lumot, bilim oladi; bunda u matnni tushunish va esda qoldirishning maxsus usullarini qo'llaydi. Ikkinci daraja – analitik – matnni tahlil qila bilish va uni tanqidiy baholash. Uchinchi daraja – ijodiy; bunda o'quvchi o'qiganlari asosida qandaydir o'zining yangi narsasini qo'shadi [5].

O'quvchining kitob bilan ishlash usullari		
Bilish darajasida	Analitik darajada	Ijodiy darajada
kitob bilan ishlashning muhimini ajrata bilish; reja, konspekt, tezis, sxemalar, jadvallar, diagrammalar tuzish; xulosalarni ifodalash; o'qish-izlanish; o'qish-saralash	Olingen axborotni mavjud axborot bilan qiyoslash; o'qilayotgan materialni tanqidiy baholash	materialni qayta tuzish; shaxsiy farazlarni ilgari surish; farazlarni asoslash va tekshirish

I-rasm. Kitob bilan ishlash darajalari

Ta'lism jarayonida darslik quyidagi vazifalarni bajaradi:

⊕ u yangi bilimlarning asosiy manbai, o'qituvchi tomonidan bayon etilgan materiallarni mustahkamlashning samarali vositasi;

⊕ o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish va aqliy mehnatga o'rgatish vositasi;

⊕ o'quvchilarni tadqiqotchilik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi;

⊕ kitob bilan ishlash va mustaqil bilim olish ko'nikma va malakalarini hosil qilish vositasi sanaladi.



Boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan ko'pgina fanlarga oid mavjud darslik va o'quv qo'llanmalari muammoli ta'lim prinsiplarini e'tiborga olmasdan tuzilgan, shu bilan birga, muammoli ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishni ko'zda tutmaydi.

Ana shu jihatdan A.E.Dmitriyev o'z tadqiqotlarida darslik vositasida muammoli ta'limdan foydalanish bosqichlarini qo'llashga harakat qilgan.

U o'z oldiga ta'limning har bir bosqichida maqsadga yo'naltirilgan, tanlangan mashqlardan iborat o'quv topshiriqlarini tizimga kiritish vositasi bilan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishni maqsad qilib qo'yadi:

a) faollashtirish va yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash jarayonida:

o'quvchilarning bilish faolligini oshiradigan mustaqil bajariladigan topshiriqlar kiritiladi;

yangi bilimning assi bo'lib xizmat qiladigan ilgarni o'r ganilgan qoidalar, tushunsalardagi muhim belgilar aniqlanadi va guruhlanadi;

yangi tushunchalar, qoidalarni o'r ganishga tayyorgarlik o'quvchilarga notanish bo'lgan materiallarni ilgari o'r ganilgan materiallar bilan qiyoslash asosida amalga oshiriladi;

mustaqil mashg'ulot va tayyorgarlik mashqlari bilishga oid masalalar qo'yish, muammola vaziyatlarni vujudga keltirish uchun zarur ma'lumotlar yig'ish maqsadida ham foydalaniladi;

b) yangi qoidalar, tushunchalar, qonunlar bilan tanishtirish jarayonida:

o'quvchilar mustaqil bajarishlari orqali ularning bilish faolligini oshiradigan topshiriqlar kiritiladi; faol kuzatish, faktik materiakllar bilan tanishish, ularning xususiyatlarini anglash;

faktik materiallarni tahlil qilish, taqqoslash, farqli va o'xshash tomonlarini payqash, yangi tushunchalar, qoidalarni xarakterlovchi muhim belgilarni aniqlash; muhim belglarni, umulashmalarni umumiyligi tizimga birlashtirish, yangi xulosalar yasash, o'zlashtiraldigan materiallarni umumlashtirishga oid ishlarning natijalarini tekshirishni sintez qilish;

nazariy qoidalarni amalda qo'llay olish, o'z harakatlarini asoslash, topshiriqni bajarilishinining to'g'riligini tekshirish;

v) o'quvchilarda bilimlarni mustahkamlash hamda malaka va ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida misollarni mashq qilish jarayonida o'quvchilarga o'zlarining amaliy harakatlarini asoslab bera olishni o'rgatadigan topshiriqlar kiritiladi.

Birinchi muammoli mashq dastlabki bilimlarni mustahkamlanishi hamda ko'nikma hosil qilishda ana shu bilimni qo'llanilishini ta'minlaydi. Sinov mashqlarining materiallari bir xil bo'lib, u diqqatni bitta qoida, tushuncha yoki ko'nikma atrofiga to'playdi hamda mantiqiy mulohazani, o'zining amaliy harakatining izchilligini batafsil tushuntirishni talab qiladi.

Navbatdagi mashq qilinadigan misollar shunday tuzilganki, bunda muayyan qoidaga asoslangan dastlabki harakat o'zgaradi – ilgarigi harakatning o'zgarishi hosil bo'ladi, mashqlar birinchi holatdagidek bir turli emas, har xil bo'ladi: o'rganilayotganning yangi tomonlarini topish, yangi masalalar echilayotgan turli vaziyatlarda bilim, ko'gikma va malakalarni qo'llanilishi;



g) yangi materialni o'zlashtirilish munosabati bilan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni takrorlashni talab qiladigan topshiriqlarni kiritish;

bunda 3 turdag'i umumlashtiruvchi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

bitta mavzuning ichida takrorlash, mavzu ichidagi qoida, tushunchalar tizimini mustaqil qo'llash;

o'rGANIladIGAn materialni takrorlanadIGAn material bilan qiyoslash;

o'quvchilarda mavzulararo xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish;

d) o'quvchilar tomonidan o'zlarining o'quv ishlari natijalarini tekshirishi (o'z-o'zini nazorat qilish) hamda ijodiy tipdag'i ishlar hajmini oshirishni ta'minlashiga muhim ahamiyat berish. Bunda o'quvchilarning mashqlar xarakteridagi mustaqil ishlarini ularning ijodiy faoliyati bilan, o'quv muammosining qo'yilishi va uni hal qilinishi bilan qo'shib olib borish zarurligi ko'rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rinish turibdiki, topshiriq ta'limning uchta asosiy bosqichining har birida (darsning ham) o'quv muammosining tarkibi bo'yicha variantlanib turadi hamda o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatining har xil darajasini ta'minlashi mumkin emas. Bunday variantlanishlarga o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyati uchun sharoit yarata borib pedagoglarning o'zi darsga tayyorgarlik ko'rish va darslik materialini bayon etish izchilligini o'zgartirib turish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 майдаги «2022 — 2026 йилларда халқ таълимини ривожлантириш бўйича Миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисидаги » ПФ-134-сонли Фармонига 1-ИЛОВА.

2. Ашурова З.М. Муаммоли таълим технологиялари, уларнинг ўзига хос xусусиятлари. <http://www.scientificprogress.uz/uz. VOLUME 2. ISUE 7/2021>.

3. Норматова Г. Ўқувчиларда мустақил фикрлвш ва ижодий тафаккур. "Science and Education" Scientific Journal. <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/download/639/630/1463>

4. Худоёрова О. (2022). Ёшлиарни мустақил фикрлашга ўргатишнинг психологик омиллари. Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований <https://inlibrary.uz/index.php/carjis/article/view/5680>.

5. Махмутов М. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. -Т.: "Ўқитувчи", 1981. -195 б.